



VIDEO MATERIALLARINING O'ZBEK TILINI O'QITISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Komilova Zulxumor

Xumor851@mail.ru

Farg'ona Davlat universiteti

Madaminova MahliyoXon Ubaydullo qizi

FarDU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada video materiallardan o'zbek tilini o'qitish jarayonida foydalanishning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Bugungi kunda ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Video materiallar o'quvchilarda eshitish, talaffuz, so'z boyligi va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada video darslarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va interfaol muloqotni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Xulosa sifatida, video materiallar o'zbek tili ta'limida o'qitish samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются роль и значение использования видеоматериалов в процессе обучения узбекскому языку. Сегодня использование современных информационных технологий в образовании является одним из основных факторов, повышающих интерес учащихся к изучению языка. Видеоматериалы способствуют развитию слуха, произношения, словарного запаса и культуры речи учащихся. В статье также анализируется значение видеоуроков в формировании самостоятельного мышления, аналитического подхода и интерактивного общения у учащихся. В заключение следует отметить, что видеоматериалы признаются важным педагогическим средством, повышающим эффективность обучения узбекскому языку.*

Abstract: *This article discusses the role and importance of using video materials in the process of teaching the Uzbek language. Today, the use of modern information technologies in education is one of the main factors that increase students' interest in learning the language. Video materials serve to develop students' hearing, pronunciation, vocabulary and speech culture. The article also analyzes the importance of video lessons in forming independent thinking, analytical approach and interactive communication in students. In conclusion, video materials are recognized as an important pedagogical tool that increases the effectiveness of teaching in Uzbek language education.*

Kalit so'zlar: *video materiallar, o'zbek tili, ta'lim jarayoni, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, nutq madaniyati, o'qitish samaradorligi.*

Ключевые слова: видеоматериалы, узбекский язык, образовательный процесс, инновационные технологии, интерактивные методы, культура речи, эффективность обучения.

Keywords: video materials, Uzbek language, educational process, innovative technologies, interactive methods, speech culture, teaching effectiveness

Kirish. Zamonaviy davrda ta'lim tizimi doimiy yangilanish va rivojlanish jarayonida. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi ta'lim jarayonini yanada interfaol, qiziqarli va samarali shaklga keltirdi. Shulardan biri — video materiallar yordamida o'qitish bo'lib, bu usul o'quvchilarning nafaqat eshitish, balki ko'rish orqali ham o'rganish imkoniyatini yaratadi. O'zbek tili darslarida video materiallardan foydalanish o'quvchilarda tilni tabiiy muhitda o'rganish, talaffuzni yaxshilash va so'z boyligini kengaytirish imkonini beradi. Bugungi kunda ta'limda vizual vositalar, xususan, video darslar o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirib, ularning motivatsiyasini oshiruvchi samarali usulga aylanmoqda.

Bugungi kunda o'qituvchi darsni nafaqat tushuntiruvchi, balki tashkilotchi va yo'naltiruvchi sifatida olib boradi. Shu jarayonda video darslar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular yordamida o'quvchi tilni jonli ko'rinishda o'rganadi, o'zlashtirish jarayoni esa tabiiy muhitga yaqinlashadi.

Video darslar o'quv materialini ko'rgazmali tarzda yetkazib berish imkonini yaratadi. Masalan, fonetika, so'z urg'usi yoki talaffuz mavzularida o'qituvchi o'zi eshittirish o'rniga video lavha orqali to'g'ri talaffuzni namoyish etadi. Bu esa o'quvchining eshitish va ko'rish xotirasini bir vaqtning o'zida ishga soladi. Shuningdek, video darslar o'qituvchiga darsni tizimli rejalashtirish, vaqtni tejash va murakkab mavzularni soddaroq shaklda tushuntirish imkonini beradi. Dars davomida video lavhalar yordamida tahlil, muhokama va mustahkamlash bosqichlarini oson tashkil etish mumkin. O'quvchilarda esa nafaqat axborotni eshitish, balki uni tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda o'z fikrini ifodalash ko'nikmalari shakllanadi.

Video materiallar o'quv jarayonida axborotni jonli va aniq shaklda yetkazish vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Ular o'quvchiga mavzuni ko'rish, eshitish va tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, video darslar o'quvchilarga real muloqotlarni kuzatish, tabiiy nutq ohangini eshitish, talaffuzni to'g'rilash va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi.

Video darslarning eng katta ustunligi – o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Bugungi o'quvchilar ko'proq visual fikrlaydi, ya'ni ular ko'rgan narsasini yaxshiroq eslab qoladi. Shu sababli video orqali o'qitish o'zbek tilining murakkab Grammatik qoidalarini ham osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Videodarslar o'quv-uslubiy manba sifatida yangi nazariy materialni o'rganish, o'rganilgan narsalarni takrorlash yoki aniq misol yordamida amaliy muammoni hal qilish usulini taqdim etish uchun ishlatiladi. Axborotni



visual-eshitish shaklida taqdim etish o'quvchilar tomonidan yangi idrok etish va qayta ishlashni ta'minlaydi.

Video darslardan foydalanish, ayniqsa masofaviy ta'lim sharoitida o'z samarasini isbotladi. Pandemiya yillarida o'qituvchilar "ZiyoNet", "Edu.uz", va boshqa platformalar orqali minglab video darslar tayyorlab, o'quvchilarga yetkazishdi. Bu shuni ko'rsatadiki, video darslar nafaqat sinfdagi ta'lim, balki mustaqil o'rganish uchun ham qulay manba bo'ladi. Shunday qilib, video darslardan samarali foydalanish o'zbek tili fanini o'qitish sifati va o'quvchilarning nutqiy madaniyatini yuksaltirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Multimedia darslarning afzalligi – berilayotgan materialni chuqurroq o'rganish imkonini beradi, olingan bilim xotirada uzoq muddat saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, video materiallar o'zbek tilini o'qitishda samarali, innovatsion va interfaol ta'lim vositasidir. Ular o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, eshitish va ko'rish orqali o'rganish jarayonini yengillashtiradi hamda nutq madaniyatini rivojlantiradi. Video darslar orqali o'quvchi nafaqat tilni, balki xalq madaniyatini, qadriyatlarini ham o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odiljonova, N. (2023). O'zbek tilini o'qitishda audio va video materiallardan foydalanish texnologiyalari.

2. Egambergnova, Z.H., O'ktamova, M. M. (2023). Ta'lim jarayonida videodarslar asosida o'qitishni tashkil qilish.

4. Abdullayeva, M. (2020). O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

Ta'lim muhitining transformatsiyasi: zamonaviy o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Toshkent 2025-yil 16-aprel, 22-23-betlar.

5. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 4(3), 87–95.

6. Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(1), 56–63.

7. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. *Education and science in the XXI century*. 2 (38).

8. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. *Scientific and practical journal "Technique"*. Issue No.1.



9. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. Education and innovative research. Bukhara State University, 2(2), 234-237.

10. Komilova Z.Kh, Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. Экономика и социум. 2021, № 4-1 (83), -С.167-170.

11. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi oʻrni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 234-237.

12. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal). ISSN, 2249-7137.